6-MAY

2023

Toshkent tibbiyot akademiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIKADA FAN, TA’LIM VA AMALIYOT INTEGRASIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google scholar

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

www.ares.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi

www.ssv.uz

PSIXOGEN ASTMADA SHAXSNING EMOTSIONAL XUSUSIYATLARI

Sardor Axmat o'gli Dursunov
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi pedagogika va psixologiya kafedrasi assistenti

Sayyora Shomurod qizi Hasanova
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi oliy hamshiralik ishi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy ishda Psixogen astma kasalligining kelib chiqishida shaxs-emotsional holatlariga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy o'rganishdan iborat

Kalit so`zlar: Nafas olish sistemasi, nerv-funksional sistema, psixogen astma, nevroz

АННОТАЦИЯ

В данной научной работе проводится научное исследование факторов, влияющих на личностно-эмоциональные состояния в происхождении психогенной астмы.

Ключевые слова: Дыхательная система, нервно-функциональная система, психогенная астма, невроз

ABSTRACT

In this scientific work, a scientific study of the factors influencing the personal-emotional states in the origin of psychogenic asthma is carried out.

Keywords: Respiratory system, neuro-functional system, psychogenic asthma, neurosis

Nafas olish tizimi azolari inson organizmida eng muhum organlar sistemasi bo`lib hizmat qiladi. Nafas olish sistemasining asosiy funksiyasi organizmni kislorod bilan taminlashdir. Bu tizimning biror bo`g`imida shikastlanish(kasallik)kuzatilsa butun tizim ishdan chiqishi mumkin, bu esa organizmda kislorod yetishmasligi (gipoksiya)va unda keyin qaytarib bo`lmaydigan jarayonlarni yuzaga kelishiga sabab bo`lishi muqarrardir. Bir necha yil avvalgi pandemiya holati shuni ko`rsatmoqdaki, nafas organlari kasalligiga moil insonlar sog`ligiga jiddiy e'tibor berishi kerak. Aslida xavfsiz kasallikni o`zi yo`q ammo bu tizim

kasalligi dunyo statistikasida o`z o`rnini kengaytirmoqda. Masalan, dunyo statistikasi bo`yicha branxial astma o`rtacha 5% bolalarda esa 10% tashkil qiladi, astmaning faqat bronxial, emas psixogen ahamiyatga ham ega. Hozirgi kunda bronxial astma niqobi ostida psixogen astma ham avj olmoqda bu kasallik tibbiyot psixologlari uchun yangilik emas psixogen astma simtomlari nerv-sistemasi funksional buzilishlari|(nevrozning turli xil darajalarlarida va bir qancha kasallik va hollarda) uchrashini biz tibbiyot xodimlari juda ham yaxshi bilamiz. Hozirgi rivojlanayotgan imkoniyatlarga boy davrda bu kasallik ham o`z davr imkoniyatlaridan foydalanib o`z kuchini ko`rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda asab tizimi funksional kasalliklarida bemorlarning 76% nafas yetishmovchiligi ya'ni psixogen astmadan shikoyat qilishar ekan. Ho`sh bu kasallikka nima sabab bo`ladi degan savol tug`iladi? O`tkir stress (ruhiy tushkunlik), jismoniy yuklamalarning ko`payishi, o`zidan qoniqmaslik, qadirsizlanish, hissiy zo`riqish, ish va oiladagi nizolar sabab bo`ladi.Eng qiziq tomoni ob-havo o`zgarishlari (havo sovushi,isishi,bulutli va magnit bo`ronli kunlar)ham sabab bo`ladi.Dunyoga mashhur bir qancha olimlar o`z tajribalarini aynan psixogen astma ustida o`tqazdilar.Masalan :

Professor V.F.Zelenin talabalarga ma'ruza o`qiyotgan paytda ularga nafas olishlarini nazoratga olishlarini buyurdi va 2-3 daqiqadan keyin kimning nafas olishi qiyinlashganini so`raganda talabalaring yarmi ya'ni 50% qo`lini ko`tardi. Demak bemorlarda bundan ham ko`p ko`rsatkich kuzatilishi tabiydir. Nevrozga uchragan bemorlarning ko`pchiligi o`zida kechayotgan holatlarni doim nazoratida tutadi. Bundan tashqari bir qancha olimlar kuzatuv tajribalarini olib brogan. Ulardan biri N.Highmore olib borgan tajribasida 20 yoshli yigit u ko`p yillardan beri bronxial astma tashxisi bilan davolanib keladi unda har 30 daqiqada huruj bo`lib "berotek" bilan o`tqazar va bolaligidan nimjon ,tez-tez kasallanib turar, yolgiz farzand bo`lgani uchun uni har- xashalariga ko`nib kelgan keyinchalik uni psixologik statusi o`rgandi va bemorni o`zi bilan ikki soatga olib qoldi,bu vaqt ichida bemor 4 marotaba hurujni oddiy tasirga ega bo`lmagan suyuqlik bilan o`tqazdi. Gap shundaki bu berotek kuchi bilan emas doktorni "Sizga faqat shu dori yordam beradi" so`zning kuchi hisoblanadi. Shu yo`sinda astmaning psixogen ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor isbotlandi. Keyinchalik bemor bu kasallikdan butunlay sog`ayib ketadi. Bu kasallikda bemor shaxsiy-emotsional va ong osti holatiga bevosita tasir qiladi. Misol uchun qattiq qo`rquvdan keyin gallutsinatsiyalar bilan kechish holatlari bundan tashqari bemorda doimiy chayqalish hissi bo`lib xuddi ular o`zlarini transportda, lifda, samalyotda ketayotgandek sezadi. Bemorlar tunda uxlab

yotganida tez-tez huddi zilzila bo`layotgandek qo`rqib uyg`onadi. Ularning ovozlarida o`zgarish bo`lib hatto gapirolmay qolishadi lekin ayni vaqtda chalg`itib suhbatlashsangiz ovozi yana ochilib o`zini qanday kasal bo`lganini so`zlay boshlaydi. Bir qancha ruhiy o`zgarishlar kuzatilishi bilan birga ularda tez-tez gripp bo`lib (hatto yozda ham)va shuning oqibatida "branxit"bo`lib qolganidan shikoyat qilishni yaxshi ko`rishadi.

Haqiqatdan ham keyingi paytlarda ambulatoriya va poliklinikalardagi bemorlar kasallik anketasida "surunkali bronxit"tashxisini tez-tez uchratish mumkin.

Shuni xulosa o`rnida aytish mumkin-ki bola tug`ilgandan so'ng emas balki, ona qornida paydo bo`lar ekan har qanday informatsiyani qabul qiladi, unga o`sha davrdan boshlab sog`lom muhit yaratish kerak turli xil ob-havo noqulaylik, mexanik tabiy noqulayliklar sokin psixologik muhit(urish,janjallar,stress,qiyinchiliklar,ruhiy va jismoniy bosimlardan holi bo`lish)sog`lom turmush tarziga rioya qilish. Bolalikda ularning irodasini chiniqtirib sport mashg`ulotlariga (gimnastika,suzish,boks va boshqalar bilan)band qilishlik muhimdir. Ota-ona o`rnak bo`ladigan darajada hulq, ilim va ma'daniyatga bundan tashqari tibbiy ma'daniyatga ham ega bo`lishi kerak. Shunda biz bu kasallikni boshlanishi mumkin bo`lgan joyda korreksiya qilgan bo`lamiz.

REFERENCES

1. Tibbiyot psixologiyasi 189-bet "Toshkent Iqtisod-Moliya" nashriyoti 2008.
2. Axmat o'g'li, D. S., & Sevinch, A. (2023). BEMORLARDA NEVROTIK HOLATLAR TAHLILI. Scientific Impulse, 1(8), 716-719.
3. Пирог, Г. В. (2021). Психологические особенности жизненных перспектив современной молодежи. Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги, 4-6.
4. Narmetova, Y. K. (2016). Organization of the psychological support in the cardiology clinics. Theoretical & Applied Science, (7), 28-31.
5. Нарметова, Ю. К. (2022). Особенности психокоррекционного подхода при психосоматических заболеваниях (на примере ишемической болезни сердца). Gospodarka i Innowacje., 21, 258-261.
6. Нарметова, Ю. (2015). Психосоматик беморларда эмоционал холат бузилишлари ва уларга психологик ёрдам кўрсатишнинг ўзига хослиги. ЎзМУ хабарлари.
7. Nasirovna, M. R. (2022). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL DIAGNOSIS IN CLINICAL PRACTICE. Conferencea, 4-6.

8. Narmetova, Y., Melibayeva, R., Akhmedova, M., Askarova, N., & Nurmatov, A. (2022). PSYCHODIAGNOSTICS ATTITUDE OF THE PSYCHOSOMATIC PATIENTS'DISEASE.
9. Мелибаева, Р. Н. (2022). КЛИНИК АМАЛИЁТДА КОГНИТИВ ФУНКЦИЯЛАР ВА УЛАРНИНГ БУЗИЛИШЛАРИ ПСИХОДИАГНОСТИКАСИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 928-932.
10. Мелибаева, Р., & Абдиназарова, И. (2020). Тиббий психодиагностика: муаммо, мулоҳаза ва ечимлар.
11. Рашидович, Б. Т. (2022). НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ДИАГНОСТИКИ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРЕОДОЛЕНИЯ ПОДРОСТКАМИ КРИЗИСНЫХ СИТУАЦИЙ ЖИЗНИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 3(12), 224-228.